

# MUAMMOLAR BEVOSITA SEKTOR RAHBARI ISHTIROKIDA O'RGANILMOQDA

1

## **Muammolar bevosita sektor rahbari ishtirokida o'rganilmoqda**

Ayni kunda Respublikamizning barcha hududlarida bo'lgani kabi, bizning tumanimizda ham aholini qiyayotgan muammolarni o'rganish va ularni hal etish choralarini ko'rishga qaratilgan ishlar bevosita sektorlar rahbarlari ishtirokida amalga oshirilmoqda. Zotan, aholi muammolari va ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni o'rganish va hal etish kabi amallar bevosita har bir rahbar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

4-sektor rahbari, tuman davlat soliq inspeksiyasi boshlig'i Faridjon Turaboyev boshchiligidagi muammo va kamchiliklarni o'rganish jarayonlari "Mahallabay" tizimi orqali amalga oshirilayotir. Sektor rahbari bugun Zangat mahalla fuqarolar yig'ini beshligi bilan uchrashib, kuz-qish mavsumini betalofat o'tkazish bo'yicha aholi xonadonlarida o'rganish ishlarini tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar belgilash va ushbu chora-tadbirlar asosida ish olib borish lozimligini qayd etdi. Mahalla raisi Umarali Sattorovning so'zlariga ko'ra, ayni kunda mahalla hududida aholi muammolarini o'rganish maqsadida "xonadonbay" tizimi orqali ishlar olib borilyapti.

## **So'x tumani hokimligi Axborot xizmati**

2

### **Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-01-05 08:30:07